

O'ZBEKISTON IJTIMOY DAVLAT BO'LA OLADIMI?

Umida Umarova

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Xalqaro jurnalistika fakulteti talabasi

Anotatsiya: ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi konstitutsiyasining o'ziga xos jihatlari va ijtimoiy davlat tushunchasi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Respublika, konstitutsiya, huquqiy davlat, davlat, ijtimoiy, ijtimoiy davlat, yangi tahrir, shaxs, fuqaro, ijtimoiy tenglik.

O'zbekiston Respublikasining yangilangan konstitutsiyasi avvalgi konstitutsiyadan qanday farq qiladi, yangi tahrirdagi konstitutsiya o'z fuqarolarning qanday e'tibordan chetda qolayotgan jihatlarni qamrab oldi? Yangi Konstitutsiya qabul qilish zarurati qachon va nima uchun paydo bo'ldi?

O'zbekiston konstitutsiyasiga o'zgartirish kiritish hozirgi tahlikali zamon, mamlakatning yon-atrofida shakllangan murakkab vaziyat bilan bog'liq. Bu haqida Prezident Shavkat Mirziyoyev Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish va tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan Konstitutsiyaviy kommissiya a'zolari bilan uchrashuvda so'z ochdi. Prezident avvalgi Konstitutsiyani qabul qilish jarayonida ishtirok etgan kommissiya a'zosi sifatida O'zbekiston Konstitutsiyasi mustaqillik yutuqlarida erishilgan barcha yutuqlarning mustahkam huquqiy poydevori bo'lib kelayotganini ya'na bir bor, ta'kidlab: "Hozirgi tahlikali zamon, yon-atrofimizdagi murakkab vaziyat ona vatanimiz taqdiriga yanada ulkan mas'uliyat bilan yondashib, kechiktirib bo'lmaydigan strategik qarorlar qabul qilishni taqazo etmoqda" – deb ta'kidladi.

Shunday ekan maqola davomida unutmazlik kerak, avvalgi tahrirdagi konstitutsiya ham xalqaro davlatlar tajribasini, hamda xalqaro huquqiy hujjatlar normalarini o'rgangan holda shakllantirilgan edi. Yangi tahrirdagi konstitutsiyaga esa, vaqtlar osha shakllangan yangi tajribalar va normalar qo'shimcha tarzda kiritildi.

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi 1-moddasiga yangi tushuncha kiritilib, unga ko'ra mamlakatimiz "Ijtimoiy davlat" deb e'lon qilindi. Bu tushuncha rivojlangan bir qator G'arb davlatlarida mavjud bo'lib, respublikaning ijtimoiy jihatdan o'z xalqini ta'minlab boorish va rivojlantirish mas'uliyatini o'z oldiga maqsad qilib qo'yganligini yozma ravishda tasdiqladi.

Ijtimoiy davlat o'zi nima? Ijtimoiy davlat sharoitini shakllantirish uchun qanday ishlar amalga oshirilmoqda va amalga oshirilishi zarur?

Ijtimoiy davlat – har bitta inson uchun ijtimoiy tenglik va adolat prinsiplari asosida munosib yashash sharoitlarini yaratib berilgan davlatdir. Ijtimoiy davlat ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish, muhtojlarga yordam berish bo'yicha samarali siyosat olib boorish, shaxs va uning oilasi munosib hayot kechirishi uchun yetadigan ish haqi, bandlikni ta'minlash, xavfsiz mehnat sharoitini yaratish, kambag'allikni qisqartirishni talab qiladi. Shu bilan birga, ishsizlikdan himoyalani, kafolatlangan sifatli ta'lim, malakali tibbiy xizmat, barcha uchun teng imkoniyatlar, oilalar, bolalar, ayollar qariyalar, nogiron shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash ham ijtimoiy davlatning asosiy vazifasidir.

G'arbiy Yevropa davlatlari tajribasiga nazar soladigan bo'lsak, aksariyat davlatlar o'zini ijtimoiy davlat deb hisoblaydi. O'z navbatida bular: Germaniya, Fransiya, Skandinaviya yarim orol davlatlari, Gollandiya va Kanada kabi davlatlar bo'lib, bu davlatlarda hukumatning asosiy vazifasi aholini ijtimoiy himoya qilishdir. Bundan

ko'rinib turibdiki, ijtimoiy davlat tushunchasi, yaqinda paydo bo'lgan tushuncha yoki atama emas. Bu tarix va rivojlangan davlatlar tajribasidir. Davlatlarning boy bo'lishining o'zi ijtimoiy davlat qiyofasini belgilab bermaydi. Misol uchun, Amerikada Yalpi ichki mahsulot hajmi yuqori bo'lishiga qaramasdan, undagi aholining 1% qismi, qolgan aholi ijtimoiy sharoitiga nisbatan juda yuqori, ya'ni boy hisoblanadi. Ijtimoiy davlatda esa, ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi farqlar bu qadar katta bo'lmasligi zarur. Biroq, bu holatni Sobiq Ittifoqning kommunistik partiyasi ilgari surgan g'oya bilan o'xshash deb bilish xat6, chunki, ijtimoiy davlat rivojlanishining eng birinchi sharti huquqiy davlat sharoitining rivojlanganligidir.

O'zbekistonda yangi tahrirdagi konstitutsiyadan oldin ham ijtimoiy davlat sharoitini shakllantirish uchun bir qator islohotlar amalga oshirilgan. Misol uchun, O'zbekiston respublikasining avvalgi tahrirdagi konstitutsiyasining, o'zidayoq: "Pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordam turlarining barcha shakllari yashash uchun zarur deb hisoblangan eng kam miqdordan kam bo'lmasligi kerak" – deb belgilab qo'yilgan edi. Shu bilan birga, konstitutsiyaning tub mohiyati ham "davlat – jamiyat – shaxs" tamoyili asosida shakllangan bo'lib, mustaqillikga erishilgandan to bugunga qadar inson manfaatlarini mamlakatimiz siyosatining bosh maqsadi hisoblangan.

Xo'sh, unda Yangi konstitutsiyada, "Ijtimoiy davlat" deb belgilab qo'yishning qanday sababi mavjud. Gap shundaki, O'zbekiston xalqaro hamjamiyatning to'laqonli a'zosi va undagi barcha islohotlar dunyo nigohida bo'ladi. Konstitutsiyaga ijtimoiy davlat atamasining kiritilishi, mamlakatimizning o'z fuqarolari uchun ijtimoiy davlat sharoitini shakllantirib berish mas'uliyatini va majburiyatini olganligining isboti bo'lib qoladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ijtimoiy davlatni shakllantirish uchun bir qator islohotlar amalga oshirilyapti, quyida buning bir necha misollarini ko'rib o'tish mumkin. "Aholining ijtimoiy himoya olish huquqlarini ta'minlash hamda davlat ijtimoiy yordami va xizmatlarini ko'rsatishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi (539-son) hukumat qarori qabul qilinib, qaror doirasida bir qator islohotlar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. Unga ko'ra:

o'zgalar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz yashovchi hamda yolg'iz keksalar va nogiron shaxslar "Inson" ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish markazlari tomonidan tasdiqlangan jadval asosida bir yilda kamida bir marotaba chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi; ijtimoiy xodimlarga fuqarolardan kam ta'minlangan oilalar bolalari uchun nafaqa va moddiy yordam tayinlash bo'yicha arizalarni qabul qilish vakolati beriladi.

Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan:

2023-yil 1-noyabrdan ijtimoiy xizmatlar va yordamlar eksperiment tariqasida yo'lga qo'yiladigan tuman (shahar)larda "Inson" ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish markazlarida og'ir hayotiy vaziyatga tushgan shaxslar uchun psixologik yordam ko'rsatish tizimi joriy etiladi;

2023-yil 15-noyabrgacha o'zining tizimiga kiradigan tashkilotlarga tegishli bino va inshootlarga ijtimoiy himoya yo'nalishidagi nodavlat notijorat tashkilotlarini, zaruratga ko'ra, tekin foydalanish huquqi asosida joylashtirish choralari ko'riladi;

2023-yil 1-dekabrgacha tibbiy-ijtimoiy ekspertizadan o'tkazish natijasiga ko'ra nogironligi bo'lgan shaxs uchun sog'lig'ining holatiga ko'ra mumkin bo'lgan mehnat faoliyati turlari va mehnat sharoitlari to'g'risidagi ma'lumotlar integratsiyasi ta'minlanadi;

2024-yil 1-yanvargacha ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining murojaatlarini tezkor ko'rib chiqishga mo'ljallangan "ishonch telefoni" ishga tushiriladi.

Xulosa shuki, ijtimoiy davlat qurish zarurati xalq farovonligini ta'minlash va mamlakatimizning jahon hamjamiyatida yanicha bosqichga o'tish strategiyasini qo'llab-quvvatlaydi. Bu borada, bir qator ishlar allaqachon shakllanib ulgurgan ham, shunday

ekan bunga nafaqat davlat organlari, balki fuqarolar ham o'z pozitsiyasidan kelib chiqqan holda mas'ul ekanligini anglashi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. https://constitution.uz/oz/pages/yangi_tahrirdagi_konstitutsiya
3. "Aholining ijtimoiy himoya olish huquqlarini ta'minlash hamda davlat ijtimoiy yordami va xizmatlarini ko'rsatishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi (539-son) hukumat qarori
4. <https://lex.uz/docs/-6445145>
5. <https://kun.uz/news/2023/05/02/yangi-konstitutsiya-10-ta-asosiy-ozgarish?q=%2Fuz%2Fnews%2F2023%2F05%2F02%2Fyangi-konstitutsiya-10-ta-asosiy-ozgarish>